Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. Kimyo fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar**				
O‘quv modul	3.4. “Kimyo darslarida o‘quvchilarning o‘quv faoliyati natijalarini baholash va xalqaro tadqiqotlar” modulining o‘quv dasturi				
Mavzu	Kimyo darslarida xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) topshiriqlaridan foydalanish				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• O‘qituvchilarga PISAning ta’lim tizimini isloh qilishdagi rolini tushuntirish; • O‘qituvchilarning kimyo darslarida xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) topshiriqlaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish; - mavzu va reja bilan tanish-tirish.	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol - “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd 1-ilova	O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	-O‘qituvchilarga PISAning ta’lim tizimini isloh qilishdagi rolini tushuntirish; - O‘qituvchilarning kimyo darslarida xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) topshiriqlaridan	35	Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish	4-17- slaydlar	O‘qituvchilar kimyo darslarida xalqaro baholash dasturlari (PISA, TIMSS) topshiriqlaridan foydalanishning ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganadi.

	foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.				
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: Har bir guruhga kimyo mavzusiga oid baholash topshirig‘ini muhokama qilish vazifasi berish.	15	Guruhlarda ishlash	1- tarqatma; 18-slayd	O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muho-kama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish	10	Suhbat, muhokama, tahlil	18-slayd; 3-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- “Men nimani o‘rgandim?” usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	19-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	20-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova. Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi (namuna):

- PISA tadqiqotlarida tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlikni baholashning qaysi jihatlari muhim deb hisoblanadi?
- PISA tadqiqotlarining natijalari ta’lim siyosatida qanday o‘zgarishlar kiritishga asos bo‘lishi mumkin?

2- ilova 1-tarqatma material

Tinglovchilar 4 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi amaliy topshiriq matni tarqatiladi.

1-guruh

PISA va TIMSS natijalaridan foydalanib, o‘qituvchilar qanday ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishlari mumkin?

2-guruh

TIMSS tadqiqotlarining natijalari o‘qitish metodlarini qanday takomillashtirishga yordam beradi?

3-guruh uchun topshiriq

TIMSS tadqiqotlari natijalarini o‘quvchilarning xalqaro standartlarga mos bilim darajasini aniqlashda qanday qo‘llash mumkin?

4-guruh uchun topshiriq

PISA va TIMSS tadqiqotlari o‘quvchilarning 21-asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda qanday rol o‘ynaydi?

3-ilova. Har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

a) Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
b) Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?
c) Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?

Kamchiliklar	**Afzalliklari**